IPOTEKA KREDITLARINI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	1155
Rasulov Doniyor Dilmurod o'g'li	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH FUNKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	1161
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
QORAQALPOG'ISTON AGRAR TARMOG'IDA TRANSFORMATSION O'ZGARISHLARNING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	1166
Mambetnazarov Baxit Bisenbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINI STRATEGIK BOSHQARISHNING DOLZARBLIGI	1171
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA SHAHARSOZLIK JARAYONLARINING EKOLOGIK OQIBATLARI	1175
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Olimov Anvarjon Atamirzayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA UNDA XORIJIY INVESTITSİYALARNING ROLI.....	1182
Nazarova A.N.	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIYAVIY BOSHQARISHNING AYRIM JIHATLARI.....	1187
Mamatov O'tkir Botir o'g'li	
JANUBI-G'ARBIY O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOQLARINI PROGNOZ QILISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)	1191
Xudoyberdiyeva Iroda Abduxomidovna	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISHDA G'AZNACHILIK TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING MOLIYAVIY SAMARADORLIGI.....	1199
Tangrieva Farida Abduraimovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIGIDA INNOVATSION FAOLIYATNING AHAMIYATI	1204
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
YASHIL MARKETING YONDASHUVI ORQALI KORXONALARDA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1211
Sapayev Axmed Durdibayevich	



АНАЛИЗ И ОПТИМИЗАЦИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ И РАСХОДОВ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ	1216
Ташмухамедова Карима Саматовна, Якубова Сабина Алишеровна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA FERMER XO'JALIKLARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH	1222
B.B.Seilbekov	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQARORLIK SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	1226
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF FOREIGN TRADE ACTIVITY IN UZBEKISTAN'S REGIONS AND FORECASTING REGIONAL FOREIGN TRADE UNDER WTO AND EAEU ACCESSION (BASED ON THE CASE OF KAZAKHSTAN).....	1230
Sitara Tojiqulova Sobirjon qizi	
BANKLARNING KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISHNING – COST OF RISK (COR) KO'RSATKICHI TAHLILI	1240
Maxmudov Omon Tuxtayevich	
1-WIRE PROTOKOLI ASOSIDA BIOSIGNALLARNI UZATISH JARAYONI VA MA'LUMOTLAR STRUKTURASINI LOYIHALASH	1245
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA VA UNING XUSUSIYATLARI	1250
Ibrohimov Davronbek Muhammadi o'g'li	
ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ.....	1257
Хамидходжаева Назира Махкамовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI AYLANMA MABLAG'LARINI BOSHQARISH METODOLOGIYASI.....	1260
Taspanova Ayzada Kenjebayevna	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT SANOATI VA UNING RIVOJLANISH HOLATI	1264
Xusanova Gavhar	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LTE VA NR TARMOQLARINING BIRGALIKDA ISHLASHINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....	1270
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
THE OPPORTUNITIES OF PERSONALIZING TOURISM SERVICES THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE	1276
Olimov Davron Olimovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ РАДИОЖУРНАЛИСТИКИ В ЭПОХУ ЦИФРОВОГО ЭФИРА: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ	1281
Мамадалиева Шахноза Абдумаликовна	
EFFECTIVE MANAGEMENT OF ADMINISTRATIVE PERSONNEL IN UZBEKISTAN'S PUBLIC UNIVERSITIES.....	1289
Inoyatov Orzubek Saidvaliyevich	
ZAMONAVIY MENEJMENTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	1297
Igamberdiyeva Nasiba Babadjanovna	
DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLARI MILLIY MOLIYA BOZORINI BARQARORLASHTIRISH OMILI SIFATIDA.....	1304
Rabiyev Akram Homitovich	
AKTSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVATSION JARAYONLARNI KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMI ASOSIDA TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI	1311
Xujaxonov Nuriddin Nasrullayevich	
ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА	1318
Худайберганава Зарофат Захидовна	
К ВОПРОСУ О РАССМОТРЕНИИ РИСКОВ ЛЕГАЛИЗАЦИИ НЕЗАКОННЫХ ДОХОДОВ В УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛАХ ПРОФИЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ ПО БАНКОВСКОМУ АУДИТУ	1324
Мухамедова Севара Абдуллаевна	



MINTAQA SANOATIDA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONI	1336
Norov Murodjon Maxmudovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH: HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	1342
Maxkamov Otabek Muxammadjonovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'RTA VA UZOQ MUDDATLI DAVRDA DAVLAT QARZINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....	1351
Egamberdiyev Jonibek O'ralovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDA RAQOBAT VA UNING MUAMMOLARI	1354
Mardonov Bahodir Bahronovich, Abdanov Rahmatillo Abdig'afurovich	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH HAMDA TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1360
Xamdamov Shaxzod Ilxom o'g'li	
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1365
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
SAVDO JARAYONIDA MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI	1371
Jalalova Dildora Jamolovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM SOUTH KOREA.....	1375
Karshieva Marjona Alisher kizi	
TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI VA YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	1380
Qurbonova Malika Ahmad qizi	
SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	1384
Uzoqov Farhod G'afforovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI MEKANIZMI VA UNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI RIVOJLANISHI....	1388
Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1392
Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich	
BUG'DOY HOSILDORLIGI VA YALPI HOSILINI TAHLIL QILISH HAMDA HISOBLASH USULLARI	1396
Uzoqova Ziyodaxon Abdug'afforovna	
RAQAMLI MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	1402
Muyassarzoda Fayziyeva	
MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH ORQALI AGRORESURLAR BOZORI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1408
Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, Tashmuxeimedova Yayra Atxamovna	
JAHONDA KREATIV SOHALARNI RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI DAVRDA IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI.....	1414
Ismailov Azizbek Ruzimaxammatovich	
OSIYO DAVLATLARI RAQAMLI JURNALISTIKADA AYOLLAR ISHTIROKI (JANUBIY KOREYA, HINDISTON, YAPONIYA) DAGI ZIDDIYATLAR.....	1425
Zakirova Oisha	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: СОЦИОЛОГИЯ РОЛИ ЖЕНЩИН И ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБЩЕСТВЕ	1431
Сиддикова Гулноза Абдумаликовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI YURITISHDA TA'MINOT JARAYONINING AHAMIYATI.....	1437
Nuraliyeva B.	



TEMIR YO'L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	1443
Raximov Xasan Shukurjonovich	
XALQARO TASHQI ISHLARDA KATTA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MA'LUMOT DIPLOMATIYASI: AXBOROTNI STRATEGIK RAZVEDKAGA AYLANTIRISH	1450
Kurolov Maksud Obitovich	
TA'LIM BOSHQARUVIDA "YASHIL KO'NIKMALAR"NI INTEGRATSIYALASH VA BARQAROR RIVOJLANISH: TALABALAR VA TIZIMLARNI IQLIM HARAKATIGA VA YASHIL IQTISODGA O'TISHGA TAYYORLASH.....	1460
Esanova Shohida	
НАЛОГОВАЯ КУЛЬТУРА: СУЩНОСТЬ, ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ	1468
Хамзина Динара Рашатовна	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT KORXONALARINING INNOVATION FAOLIYATINI TANLANMA KUZATUV ASOSIDA O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	1473
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA "YASHIL MENEJMENT" TIZIMINI JORIY ETISH	1482
Masharipova Sevara Bekturdi qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNING INNOVATION USULLARI	1487
Marimova Indira Rasul qizi	
DAVLAT KORXONALARINI ISLOH QILISHNING ZAMONAVIY BOSQICHLARI VA O'ZBEKISTONNING XUSUSIYLASHTIRISH MODEL.....	1492
Murodov Orif Jumayevich	
TIJORAT BANKLARNING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING XORIY TAJRIBASI	1497
Sultanmuratova Dilrabo Shaylavbekovna	
ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ И ПУТИ ГАРМОНИЗАЦИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ	1502
Киличева Ф.Б.	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRINI BAHOLASH	1507
Kurbanov Feruz Pirnazarovich, Quدراتov Islom Ismat o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН	1511
Маденова Эльмира Нзаматдиновна	
ПРАВОВАЯ ПРИРОДА СОГЛАШЕНИЯ О РАЗДЕЛЕ ПРОДУКЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1516
Мансуров Обид Зайнидинович	
РЕКЛАМА ХИЗМАТЛАРИ BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHGA OID NAZARIY QARASHLAR.....	1522
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA VOSITACHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI.....	1528
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI SUBEKTLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MEKANIZMLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIGA MOS TRANSFORMATSIYASI	1534
To'rayev Shavkat Shuxratovich, Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
YASHIL IQTISODIYOT VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	1540
Yaxshibayev Ulug'bek Shavkat o'g'li	



YASHIL IQTISODIYOT VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK

Yaxshibayev Ulug'bek Shavkat o'g'li

Xonqa tumani kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi boshlig'i

E-mail: u.yaxshibaev_0808@icloud.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada yashil iqtisodiyot konsepsiyasi va kambag'allikni qisqartirish jarayoni o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinadi. Yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanish, resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy tenglikni ta'minlash orqali kambag'allikni kamaytirishning muhim omili sifatida qaraladi. Tadqiqotda O'zbekiston tajribasi hamda xalqaro amaliyotlar asosida yashil iqtisodiy siyosatning ijtimoiy ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, kambag'allikni qisqartirish, barqaror rivojlanish, ekologiya, resurslardan foydalanish, ijtimoiy adolat.

Abstract. This article examines the interrelationship between the concept of the green economy and the process of poverty reduction. The green economy is regarded as a crucial factor in mitigating poverty by ensuring sustainable development, efficient resource utilization, environmental safety, and social equity. The study explores the social impact of green economic policies based on Uzbekistan's experience and international practices.

Key words: green economy, poverty reduction, sustainable development, ecology, resource efficiency, social equity.

Аннотация. В данной статье анализируется взаимосвязь между концепцией «зелёной экономики» и процессом сокращения бедности. Зелёная экономика рассматривается как важный фактор снижения уровня бедности за счёт обеспечения устойчивого развития, рационального использования ресурсов, экологической безопасности и социальной справедливости. В исследовании раскрывается социальное воздействие политики «зелёной экономики» на примере опыта Узбекистана и международной практики.

Ключевые слова: зелёная экономика, сокращение бедности, устойчивое развитие, экология, рациональное использование ресурсов, социальная справедливость.

KIRISH

Hozirgi kunda dunyo miqyosida iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlash jarayonida ekologik muvozanatni saqlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi, atrof-muhitning ifloslanishi hamda demografik bosim kabi omillar natijasida yangi iqtisodiy yondashuv — yashil iqtisodiyot konsepsiyasi shakllandi. Ushbu konsepsiyaning asosiy maqsadi — iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikni uyg'unlashtirish orqali jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlashdan iboratdir.

Yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik muammolarni kamaytirish, balki aholining turmush darajasini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda kambag'allikni qisqartirishning muhim omili sifatida e'tirof etiladi. Kambag'allikni qisqartirish esa o'z navbatida inson kapitalining rivojlanishi, sog'lom turmush tarzining shakllanishi va barqaror iqtisodiy o'sish uchun mustahkam poydevor yaratishga xizmat qiladi. Shu bois, yashil iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur o'rganish bugungi davrda nihoyatda dolzarb masala hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindisiz ishlab chiqarish tizimlarini joriy etish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash hamda kambag'allik darajasini kamaytirishga qaratilgan qator davlat dasturlari izchil amalga oshirilmoqda. Bu jarayon mamlakat iqtisodiy siyosatida ekologik barqarorlik va ijtimoiy tenglik tamoyillarini uyg'unlashtirish yo'lidagi muhim bosqich sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur maqolada yashil iqtisodiyot konsepsiyasining mohiyati, uning kambag'allikni qisqartirishdagi o'rni hamda O'zbekiston tajribasi va xalqaro amaliyotlar asosida mazkur jarayonlarning o'zaro bog'liqligi tahlil qilinadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda yashil iqtisodiyot konsepsiyasi va kambag'allikni qisqartirish jarayoni o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ko'plab olimlar tomonidan tahlil qilinmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotning rivojlanishi barqaror iqtisodiy o'sish, ijtimoiy tenglik va ekologik xavfsizlikni ta'minlash orqali kambag'allikni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Xorijiy tadqiqotchilardan J. Sachs (2015) o'zining "The Age of Sustainable Development" asarida yashil iqtisodiyot va kambag'allikka qarshi kurashni bir butun jarayon sifatida talqin qiladi. U barqaror rivojlanishning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ustunliklarini uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlaydi. UNEP (United Nations Environment Programme, 2020) tomonidan tayyorlangan "Green Economy Report"da yashil iqtisodiyotning kambag'allikni qisqartirishdagi global ta'siri ko'rsatilib, resurslardan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyati asoslab berilgan. Shuningdek, OECD (2019) "Towards Green Growth: Monitoring Progress" hisobotida yashil iqtisodiyot mamlakatlarning iqtisodiy siyosatida kambag'allikka qarshi barqaror mexanizm sifatida qaralishi lozimligi ta'kidlanadi.

Mahalliy tadqiqotchilar orasida A. Xasanov va D. Yo'ldosheva (2021) o'z asarlarida yashil iqtisodiyotning O'zbekiston sharoitida iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikka ta'sirini chuqur tahlil qilgan. Ularning fikricha, yashil iqtisodiyot resurslardan oqilona foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish hamda ekologik toza ishlab chiqarish orqali kambag'allikni kamaytirishning samarali vositasidir. N. Tursunova (2022) esa yashil iqtisodiyot va ijtimoiy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, ijtimoiy adolat va hududiy tenglikni ta'minlashda ekologik siyosatning o'rni muhimligini ta'kidlaydi.

Umuman olganda, mahalliy va xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki ijtimoiy tenglik, iqtisodiy samaradorlik va kambag'allikni qisqartirish orqali inson farovonligini oshirishdan iboratdir. Shu sababli, O'zbekiston tajribasida yashil iqtisodiyotning kompleks rivojlanishini ta'minlash global tendensiyalar bilan uyg'un holda milliy rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismiga aylangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda yashil iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tizimli, ilmiy va empirik yondashuvlar asosida tahlil qilindi. Tadqiqotda asosiy metod sifatida tizimli tahlil, taqqoslama tahlil, empirik yondashuv hamda korrelyatsion va trend tahlil usullari qo'llanildi. Tizimli tahlil orqali yashil iqtisodiyotning iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan o'zaro ta'siri o'rganildi. Taqqoslama tahlil yordamida O'zbekiston tajribasi boshqa davlatlar amaliyoti bilan solishtirilib, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlangan. Empirik yondashuvda rasmiy statistik ma'lumotlar asosida yashil iqtisodiyotning kambag'allikka ta'sir darajasi baholandi, korrelyatsion va trend tahlil usullari yordamida yashil investitsiyalar, energiya samaradorligi va kambag'allik ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanib, iqtisodiy natijalar umimlashtirildi. Metodologik yondashuvlar asosida yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanish va ijtimoiy adolatni ta'minlashdagi o'rni tahlil qilinib, amaliy xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda global miqyosda iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan bir qatorda, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni saqlash masalasi insoniyat oldidagi eng muhim vazifalardan biriga aylandi. Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi, atrof-muhitning ifloslanishi hamda kambag'allikning chuqurlashuvi bugungi kunning eng dolzarb muammolari sirasiga kiradi. Shu sharoitda yashil iqtisodiyot konsepsiyasi nafaqat ekologik, balki ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni birgalikda hal etishga yo'naltirilgan innovatsion yondashuv sifatida e'tirof etilmoqda.

Yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari — barqaror ishlab chiqarish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ijtimoiy adolatni ta'minlash orqali kambag'allikni kamaytirish imkonini beradi. Ushbu jarayon nafaqat iqtisodiy o'sishning ekologik xavfsizligini oshiradi, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining farovonligini yuksaltirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 4-oktabrdagi "2019-2030-yillar davrida Yashil iqtisodiyotga o'tish Strategiyasi" PQ-4477-son¹ bo'yicha qabul qilingan qarorlari va milliy dasturlari mamlakatda ekologik barqarorlikni mustahkamlash bilan bir qatorda, kambag'allikni qisqartirishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, yashil iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy jihatdan

1 16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qaroriga asosan qabul qilingan "2019-2030-yillar davrida Yashil iqtisodiyotga o'tish Strategiyasi". <https://lex.uz/docs/-4539502>



o'rganish, milliy va xalqaro tajribalarni tahlil qilish hamda samarali takliflar ishlab chiqish bugungi davrning dolzarb vazifalaridan biridir.

Yashil iqtisodiyot — bu iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan birga, atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan oqilona foydalanish va ijtimoiy tenglikni qaror toptirishga yo'naltirilgan yangi turdagi iqtisodiy modeldir. Boshqacha aytganda, u iqtisodiy rivojlanishning ekologik va ijtimoiy jihatdan barqaror shaklini ifodalaydi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotga o'tish nafaqat tabiiy resurslardan samarali foydalanish, balki aholi bandligini oshirish va kambag'allikni kamaytirishning muhim omili hisoblanadi.

1. Yashil iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlari. Yashil iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish (quyosh, shamol, bioenergiya);
- Ekologik toza ishlab chiqarish tizimlarini yaratish;
- Resurslarni tejash va chiqindilarni kamaytirish;
- "Yashil" texnologiyalarni joriy etish;
- Ijtimoiy adolat va iqtisodiy inkluzivlikni ta'minlash.

Mazkur yo'nalishlar bevosita ijtimoiy farovonlikka, xususan kambag'allikni qisqartirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, qayta tiklanuvchi energiya sohasida yangi ish o'rinlarining yaratilishi kam ta'minlangan qatlam vakillarining bandligini oshirib, ularning daromad manbalarini kengaytirishga xizmat qiladi.

2. Yashil iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik.

Kambag'allikni kamaytirish jarayoni iqtisodiy o'sishning sifati bilan bevosita bog'liq. Agar o'sish ekologik muvozanatni buzsa, bu uzoq muddatda ijtimoiy beqarorlikni kuchaytiradi. Shu sababli, yashil iqtisodiyot kambag'allikka qarshi kurashda samarali vosita sifatida qaraladi.

Birinchidan, yashil iqtisodiyot yangi "yashil" ish o'rinlarini yaratish orqali aholi bandligini oshiradi.

Ikkinchidan, energiya samaradorligini oshirish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirib, iste'mol narxlarining barqarorligini ta'minlaydi.

Uchinchidan, atrof-muhitni muhofaza qilish aholining sog'lom turmush tarzini shakllantiradi va tibbiy xarajatlarning kamayishiga zamin yaratadi.

3. O'zbekiston tajribasi. O'zbekistonda so'nggi yillarda yashil iqtisodiyot tamoyillarini hayotga tatbiq etish yo'lida sezilarli natijalarga erishilmoqda. Xususan:

- 2019-yilda "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" qabul qilindi;
- Qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi bosqichma-bosqich oshirilmoqda;
- Qishloq xo'jaligida suvni tejovchi texnologiyalar keng joriy etilmoqda;
- Kambag'allikka qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturlari — "Har bir oila — tadbirkor" va "Yoshlar daftari" tashabbuslari orqali aholining daromadlari oshirilmoqda.

Mazkur islohotlar natijasida mamlakatda ekologik va ijtimoiy barqarorlikni uyg'unlashtirish, aholi farovonligini oshirish hamda kambag'allik darajasini bosqichma-bosqich kamaytirish bo'yicha muhim ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda.

4. Xalqaro tajriba. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Jahon banki va Iqtisodiy hamkorlik hamda taraqqiyot tashkiloti (OECD) ma'lumotlariga ko'ra, yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etgan davlatlarda kambag'allik darajasi sezilarli darajada qisqargan. Masalan, Skandinaviya mamlakatlari, Janubiy Koreya, Germaniya va Xitoy tajribalari shuni ko'rsatadiki, yashil texnologiyalar asosida barqaror iqtisodiy o'sish bilan birga ijtimoiy tenglikni ta'minlashga ham erishilgan. Ushbu tajriba O'zbekiston uchun ham dolzarb va o'rnak bo'lishi mumkin.

5. Tahlil va natijalar. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotga o'tish:

- uzoq muddatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi;
- kambag'allikni qisqartirishning yangi mexanizmlarini yaratadi;
- ijtimoiy adolat va ekologik xavfsizlikni uyg'unlashtiradi;
- inson kapitalining rivojlanishiga mustahkam zamin yaratadi.

Demak, yashil iqtisodiyot — bu nafaqat ekologik siyosatning, balki ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning ham ajralmas qismi bo'lib, barqaror rivojlanish strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan birini tashkil etadi (1-jadval).

1-jadval. Yashil iqtisodiyot omillari va kambag'allikni qisqartirishga ta'siri

Yashil iqtisodiyot yo'nalishlari	Amalga oshirish choralari	Kambag'allikni qisqartirishga ta'siri
Qayta tiklanuvchi energiya manbalari.	Quyosh, shamol, bioenergiya loyihalari.	Yangi ish o'rinlari yaratadi, energiya xarajatlarini kamaytiradi.
Ekologik toza ishlab chiqarish.	Chiqindisiz texnologiyalar, resurs tejamkorlik.	Ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, narxlarni pasaytiradi.
"Yashil" transport.	Elektr transport vositalari, jamoat transportini modernizatsiya qilish.	Shahar havosini tozalaydi, aholining sog'lig'ini yaxshilaydi



Yashil iqtisodiyot yo'nalishlari	Amalga oshirish choralari	Kambag'allikni qisqartirishga ta'siri
Qishloq xo'jaligida yashil texnologiyalar.	Tomchilatib sug'orish, organik dehqonchilik.	Hosildorlikni oshiradi, daromadni ko'paytiradi.
Ekoturizm.	Tabiiy hududlarda turizmni rivojlantirish.	Hududlarda yangi bandlik imkoniyatlarini yaratadi.
Aholining ekologik ongi.	Yashil ta'lim, axborot kampaniyalari.	Aholining mas'uliyatini oshiradi, yashil tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaydi.

Yashil iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu ikki jarayon bir-birini to'ldiruvchi va o'zaro mustahkamlovchi omillardir. Yashil iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida iqtisodiy faoliyat ekologik xavfsiz yo'nalishga buriladi, bu esa ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va kambag'allikni kamaytirishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Birinchi, yashil iqtisodiyot yangi bandlik imkoniyatlarini yaratadi. Qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik toza ishlab chiqarish va "yashil" infratuzilma sohalarida ish o'rinlari ko'payadi. Bu esa aholining, ayniqsa yoshlar va past daromadli qatlam vakillarining iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchi, yashil iqtisodiyot resurslardan samarali foydalanish orqali iqtisodiy tejamkorlikni ta'minlaydi. Energiya samaradorligini oshirish, suv va yer resurslarini tejash natijasida ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi. Bu holat mahsulot narxlariga ijobiy ta'sir ko'rsatib, aholining real daromadlarini oshiradi va kambag'allik darajasining pasayishiga olib keladi.

Uchinchi, yashil iqtisodiyot atrof-muhitni muhofaza qilish orqali inson salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ekologik toza ishlab chiqarish, chiqindilarni kamaytirish va havoning ifloslanishini oldini olish orqali aholining sog'lom hayot kechirish sharoitlari yaxshilanadi. Bu esa tibbiy xarajatlarning kamayishiga hamda ijtimoiy farovonlikning oshishiga zamin yaratadi.

Bundan tashqari, yashil iqtisodiyotning rivojlanishi ijtimoiy adolatni ta'minlash va hududlararo tengsizlikni kamaytirish imkonini beradi. Qishloq hududlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish, ekologik turizmni rivojlantirish, suv tejovchi texnologiyalarni tatbiq etish orqali kambag'al qatlamlar uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratilmoqda.

O'zbekiston sharoitida ham ushbu yo'nalishda sezilarli natijalarga erishilmoqda. Xususan, quyosh elektr stansiyalarining qurilishi, chiqindilarni qayta ishlavchi korxonalar tashkil etilishi, ekologik toza transport tizimiga o'tish va aholining yashil madaniyatini shakllantirish bo'yicha davlat dasturlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Bu tashabbuslar mamlakatda yashil iqtisodiyot tamoyillarining izchil joriy etilayotganini yaqqol ko'rsatadi.

Shu bilan birga, rivojlanish jarayonida muayyan cheklovlar ham mavjud. Jumladan, moliyaviy resurslarning yetarli emasligi, aholining ekologik ong darajasining pastligi, yangi texnologiyalarni joriy etishdagi byurokratik to'siqlar hamda malakali kadrlar tanqisligi sohaning rivojlanish sur'atlarini sekinlashtiradi. Shu sababli, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro aloqalarni kengaytirish va aholining yashil tafakkurini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, yashil iqtisodiyotning rivojlanishi kambag'allikni kamaytirish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu yo'nalishda olib borilayotgan izchil siyosat uzoq muddatda ijtimoiy adolat, iqtisodiy barqarorlik va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil iqtisodiyot bugungi kunda nafaqat ekologik muvozanatni saqlash, balki ijtimoiy farovonlikni oshirish hamda kambag'allikni qisqartirishning eng muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etish orqali iqtisodiy o'sishni ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholining turmush darajasini yaxshilash mumkin. O'zbekiston misolida ham yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan davlat siyosati ijobiy natijalar bermoqda. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish, ekologik toza ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, suv va resurslardan oqilona foydalanish hamda kambag'allikka qarshi kurashish dasturlari barqaror rivojlanishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlarni yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi: birinchi, yashil investitsiyalarni kengaytirish, ya'ni davlat va xususiy sektor hamkorligida "yashil" infratuzilma loyihalariga sarmoya kiritish tizimini rivojlantirish zarur; ikkinchi, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rag'batlantirish maqsadida quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurishda soliq imtiyozlari hamda subsidiyalarni joriy etish lozim; uchinchi, ekologik ta'limni kuchaytirish, ya'ni aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida yashil iqtisodiyot g'oyalarini targ'ib etish va oliy ta'lim



muassasalarida maxsus fanlarni kiritish muhimdir; to'rtinchidan, yashil texnologiyalarni mahalliyashtirish, ya'ni innovatsion ishlab chiqarish jarayonlarida energiya tejakor va chiqindisiz texnologiyalarni keng tatbiq etish zarur; beshinchidan, kambag'allikka qarshi kurashda yashil sektorni integratsiya qilish, ya'ni ekologik qishloq xo'jaligi, ekoturizm va qayta ishlash sohalarida aholini ish bilan ta'minlash dasturlarini kengaytirish lozim; oltinchidan, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, ya'ni Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Jahon banki va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda yashil iqtisodiyotga oid qo'shma loyihalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Umuman olganda, yashil iqtisodiyot tamoyillarini izchil amalga oshirish nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, balki kambag'allikni kamaytirish, yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratish va inson farovonligini yuksaltirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoniga asosan tasdiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi". <https://lex.uz/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qaroriga asosan qabul qilingan "2019-2030-yillar davrida Yashil iqtisodiyotga o'tish Strategiyasi". <https://lex.uz/docs/-4539502>
3. Xasanov, A., & Yo'ldosheva, D. Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot asoslari. — Toshkent: "Iqtisodiyot" nashriyoti, 2021-yil. — 122 b.
4. Tursunova, N. "Yashil iqtisodiyot va ijtimoiy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik." — Ijtimoiy fanlar jurnali, №2(34), 2022-yil. — B. 45–52.
5. Sachs, J. D. (2015). The Age of Sustainable Development. New York: Columbia University Press. pp. 98–120.
6. United Nations Environment Programme (UNEP). (2020). Green Economy Report: Towards a Green Economy – Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. Nairobi: UNEP Publishing. pp. 5–22.
7. Organization for Economic Cooperation and Development (OECD). (2019). Towards Green Growth: Monitoring Progress. Paris: OECD Publishing. pp. 14–28.
8. Xasanov, A., & Yo'ldosheva, D. (2021). Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot asoslari. Toshkent: "Iqtisodiyot" nashriyoti. p. 122.
9. Tursunova, N. (2022). Yashil iqtisodiyot va ijtimoiy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik. Ijtimoiy fanlar jurnali, № 2 (34), 45–52.
10. OECD (Organization for Economic Cooperation and Development). Towards Green Growth: Monitoring Progress. — Paris: OECD Publishing, 2019-yil. — P. 14–28.
11. United Nations Environment Programme (UNEP). Green Economy Report: Towards a Green Economy – Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. — Nairobi: UNEP, 2020-yil. — P. 5–22.
12. World Bank. Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development. — Washington D.C.: The World Bank, 2018-yil. — P. 33–47.
13. Sachs, J. D. The Age of Sustainable Development. — New York: Columbia University Press, 2015-yil. — P. 98–120.
14. Oliy Majlis Axborotnomasi. "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi" hamda "Energiya samaradorligi to'g'risida"gi qonunlar to'plami. — Toshkent: "Adolat" nashriyoti, 2021-yil. — 60 b.
15. UNDP Uzbekistan. National Green Economy Transition Report. — Tashkent: UNDP Publication, 2022-yil. — P. 10–19.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
